



Received: April 3, 2023
Accepted: June 18, 2023
Available online: June 25, 2023

Sadoqat Xolmonova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

O'ZBEK TILIDAGI RETRONIMLAR VA ULARNING NEOLOGIZMLAR BILAN ALQASI

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda jadal rivojlanib borayotgan texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot natijasida yuzaga kelgan yangi tushunchalar, holatlar va obyektlar uchun til xususiyatidan kelib chiqqan holda ularga mos ravishda so'zlarni qayta nomlash muqarrar zaruratdir. Neologizm deb nomlanadigan bu holat hech bir tilni chetlab o'tmaydi. Uning natijasida esa tillarda yana bir tushuncha – retronimlar vujudga keladi. Retronimlar tilning jamiyatdagi o'zgarishlarga ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki ular neologizmlar ta'sirida avvalgi tushunchalarni qayta nomlash ehtiyojidan kelib chiqadi. O'zbek tili yangi tushunchalarga va so'zlarga ochiq til hisoblanadi. Tilning so'z yasash imkoniyatlaridan foydalangan holda, neologizmlar ta'sirida barchaga ma'lum so'zlarga yangi nom yaratish hodisasi – retronimiyaga ham e'tibor qaratish zarur.

Retronim tushunchasi tilshunoslikda XX asr oxirida paydo bo'lgan va unga hozirgi kunda qayta nomlash tizimining bir turi sifatida qaraladi. Ilk bor AQSH Milliy jamoat radiosining prezidenti Frank Mankiyevich tomonidan ishlatilgan bu atama "New York Times" gazetasining taniqli jurnalisti Vilyam Safire tomonidan ommalashtirildi. Dunyo tilshunosligida retronim tushunchasi nisbatan kam tadqiq qilingan masalalardan biridir. Retronimlar haqidagi ma'lumotlar ingliz tilidagi ayrim lug'atlarda qisqa berilgan, xolos. Shuningdek, ingliz, ispan, yunon, rus va turk tilshunosligidagi ba'zi ilmiy ishlarni misol qilib keltira olamiz. O'zbek tilshunosligida esa bu tushunchaga deyarli e'tibor qaratilmagan. Professor M.Yuldashevning "O'zbek tilida retronimlar" maqolasigina ushbu

Sadoqat Kholmonova

PhD Student, National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulug'bek
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: sadoqat87@gmail.com

RETRONYMS IN THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR RELATIONSHIPS WITH NEOLOGISMS

ANNOTATION

Nowadays, there is an urgent need to rename words in accordance with the characteristics of the language for new concepts, situations and objects that have arisen as a result of rapidly developing technological, socio-economic and cultural life. This phenomenon, called a neologism, does not bypass any language. As a result, another concept appears in languages – retronyms. Retronyms appear as a mirror of the language changes in societies, because they arise from the need to rename old concepts under the influence of neologisms. The Uzbek language is open to new concepts and words. It is also necessary to pay attention to retronymy, the phenomenon of giving new names to well-known words using the word-formation capabilities of the language under the influence of neologisms.

The concept of retronyms appeared in linguistics at the end of the 20th century, and today it is acknowledged as a kind of renaming system. The term was first used by National Public Radio President Frank Mankiewicz and popularized by William Safire, a prominent New York Times journalist. The concept of a retronym is one of the relatively little-studied issues in world linguistics. Information about retronyms is given only briefly in some English dictionaries. We can also give examples of some scientific works in English, Spanish, Greek, Russian and Turkish linguistics. Almost no attention is paid to this concept in Uzbek linguistics. The article by professor M.Yuldashev "Retronyms in the Uzbek language" is the only source for the study of this unit.

This article deals with retronyms in the Uzbek language, their meanings in our language and

birlikni o'rganishdagi yagona manba bo'lib turibdi.

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi retronimlar, ularning til va nutqimizdagi ahamiyati, retronim tushunchasining paydo bo'lishi va retronimik qatorning tarkibiy qismlari, ularning neologizm bilan munosabati, neonim va neologizm tushunchalarining o'xshash va farqli jihatlari haqida so'z boradi. Tilda yangi birlik paydo bo'lishining avvaldan mavjud birliklarga ta'siri, ularning o'zgarishiga sabab bo'lishi, natijada yangi hodisa hisoblangan retronimiyaning vujudga kelishi kabilar haqida fikr yuritiladi. Tildagi biror so'zning retronimi paydo bo'lishi uchun neologiya hodisasi zarurdir. Lekin har qanday neonim o'zida neologizmlik xususiyatini saqlamasligi mumkin. Shu nuqtayi nazardan bu ikki tushunchaning o'ziga xosliklari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: retronim, neologizm, protonim, neonim, yangi element, onlayn, raqamli, birlik, sotsilingvistik.

KIRISH

Barcha tirik mavjudotlarda bo'lgani kabi tilga ham o'zgarish, rivojlanish xosdir. Til muttasil rivojlanishda ekan, unda yangi-yangi tushunchalar va ularning nomlari paydo bo'laveradi. M.Yuldashev fikricha, "agar til bir asar bo'lganida edi, yaratilgandan keyin qayta o'zgarmas, qanday yaratilgan bo'lsa, shundayligicha qolgan bo'lardi. Holbuki, til o'sish-o'zgarish va taraqqiy etish, o'zini muntazam yangilash kuchiga ega. Bu kuch soyasida uzoq o'tmishdan beri har qanday holatda ham yashab kelmoqda. Farqli davrlar, farqli yondashuvlarga qarmay, til o'zining asl mohiyatini yo'qotmagan holda yangiliklarga moslashib keldi. Demak, til har qanday vaziyatga moslasha oladigan fenomendir" [Yuldashev, 2020].

Tilda asosiy o'zgarish yangi paydo bo'lgan predmetlar, obyektlarning, shaxslarning qayta nomlanishi natijasida yuzaga chiqadi. Natijada tilda yangi tushunchalarni ifodalash uchun yangi so'zlar (neologizmlar) paydo bo'ladi. Ularning paydo bo'lishi ko'pincha qayta nomlashning yana bir turi hisoblangan – retronimlarning hosil bo'lishiga olib keladi.

"Retronim" atamasini ilk bor 1980-yili o'sha vaqtdagi AQSH Milliy jamoat radiosining prezidenti Frank Mankiyevich ishlatgan. Ushbu atamaning ommalashishiga esa "New York Times" gazetasining muxbiri Vilyam Safire sababchi bo'lgan. U 1992-yili gazetaning "Til tog'risida" ruknida "elektron pochta" atamasi paydo bo'lganidan so'ng odatiy pochta nima deb nomlana boshlaganiga qiziqqan va shundan so'ng "retronim" atamasi keng ishlatila boshlangan.

"Retronim – mavjud so'zning asl shaklini taraqqiyot yoki texnologik rivojlanish mahsuli bo'lgan keyingi shaklidan faqrlash uchun paydo bo'lgan yangi nomdir. Masalan, Birinchi jahon urushi Ikkinchi jahon urushi sodir bo'lgunga qadar

speech. Moreover, the researcher considered the emergence of the concept "retronym" and the components of the retronym series, their relationships with neologisms, similar and different aspects of the concepts "neonym" and "neologism". The author considers the impact of the appearance of a new unit in the language on pre-existing units and the reason for their change. The phenomenon of neologism is necessary for the appearance of a retronym of a word in the language. But any neonym may not retain the sign of neologism. From this point of view, information about the features of these two concepts is presented.

Key words: retronym, neologism, protonym, neonym, new element, online, digital, unit, sociolinguistic.

“Buyuk urush” yoki shunchaki “Jahon urushi” deb nomlangan. Ikkinchi jahon urushi terminining paydo bo‘lishi avvalgi urushning Birinchi jahon urushi deb nomlanishiga sabab bo‘ldi. Shu tariqa paydo bo‘lgan birliklar esa “retronimlar” nomi bilan birlashtirildi” [Xolmonova, 2021].

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, mahsulot paydo bo‘lganda dastlab bir turli bo‘ladi, ya’ni unda farqlanish ehtiyoji bo‘lmaydi. Davr o‘tishi natijasida turli texnologik, ilmiy taraqqiyot bu bir xillilikni yo‘qolishiga, turfa xillik paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu xilma-xillik, o‘z navbatida, tilning lug‘at boyligiga ham ta’sir qiladi: yangi tushuncha va eski tushuncha o‘rtasida differensiallik paydo bo‘ladi. Eski tushunchani biz qayta nomlashimiz retronimiyaga olib keladi. Masalan, avtomobillar dastlab bir xil uzatmaga ega bo‘lgan. Keyinchalik taraqqiyot natijasida paydo bo‘lgan avtomat uzatmalar avvalgi biz bilgan uzatmani qayta nomlashga sabab bo‘ldi: mexanik uzatma. Hozirgi kunda bu ikki turdagi avtomobillar o‘rtasida qat’iy farq mavjud. Sotib oluvchilar avtomobil xaridi jarayonida bu ikki tushunchaga, albatta, e’tibor qaratadilar. Avtomat uzatmaning mexanik uzatma birikmasining paydo bo‘lishiga ko‘rsatgan ta’siri retronimiya hodisasiga yaqqol misol bo‘la oladi.

Frenk Mankiyevich “retronim” atamasini ishlatgandan so‘ng bu atama “Amerika merosi lug‘ati”dan ham joy oldi va unga quyidagicha ta’rif berildi: “Bir paytlar yakka o‘zi ishlatilgan atamani yangi turga mos keladigan boshqa atamalardan farqlash zarurati natijasida hosil bo‘lgan so‘z yoki ibora. Masalan, elektr gitara va akustik gitara yoki raqamli soat va analog soat” [The American heritage dictionary of the English language, 1992].

Retronimlarning paydo bo‘lishi biror-bir sohada yangilanish, tub burilish natijasida yuzaga chiqadigan o‘zgarishlar, o‘z navbatida, konseptual qayta qurishni talab etadigan o‘zgarishlarga bog‘liq. Mavjud tushunchaning qayta tahlil qilinishi tilda bor leksik birlikni o‘zgartirish, yangilash orqali qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini tug‘diradi. Doimiy rivojlanishda, o‘zgarishda bo‘lgan jamiyat bizning oldimizga eski tushunchalarni yana bir bor nazardan o‘tkazish, eski tasniflarni yangi qoida bo‘yicha ko‘rib chiqish majburiyatini qo‘yadi. Ekstralingvistik hodisalarning tilga ta’siri natijasida o‘zgarigan, paydo bo‘lgan birliklarni mavjudlari bilan birlashtirish, ularni guruhlash va sinflarga ajratish ehtiyoji retronimiyaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Arab tilidagi retronimlar haqida tadqiqot olib borgan Emine Baymanji va Abdulhakim O‘nellarning fikricha, “Retronimlar sotsialingvistik sohaga jiddiy materiallar taklif qiladigan tuzilmadir. Retronimlar ijtimoiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan paydo bo‘lishi ma’lum bo‘lganligi sababli, bu holat jamiyatdan jamiyatga farq qilishi mumkinligini taxmin qilish qiyin emas. Ayrim jamiyatlarda uchraydigan tushuncha va so‘z boshqa jamiyatda uchramaydi. Misol uchun, qahva juda ko‘p iste’mol qilinadigan G‘arb mamlakatlarida kofeinsiz qahva ishlab chiqarish boshlandi va sog‘liq bilan bog‘liq muammolarning oldini olish uchun keng tarqatildi. Natijada, qahvaning avvalgi barchaga ma’lum shaklini ko‘rsatish uchun kofeinli qahva birikmasi, ya’ni retronimi yaratildi. Biroq G‘arb mamlakatlaridagi kabi qahva iste’mol qilinmaydigan joylarda bu retronim ishlatilmaydi. Shu sababli ayrim retronimlar

o‘zlari mansub bo‘lgan til madaniyati haqida muhim ma’lumot tashuvchi birliklar hisoblanadi” [Bağmanci & Önel, 2022].

Rertonimlarning sotsiolingvistik xususiyatlariga “surrogat ona” neologizmi bilan bog‘liq holatlarni ham misol keltirishimiz mumkin. O‘zbek tilida so‘nggi yillarda bu atama ko‘zga tashlanmoqda. “Sakkizinchi iyun kuni futbolchiga surrogat ona ikki chaqolaq – Yeva va Mateuni tug‘ib bergandi”, deb yozadi www.kun.uz futbolchi Ronaldu haqidagi yangiliklarning birida. Ushbu neologizm o‘z navbatida barchamizga ma’lum bo‘lgan ona tushunchasini “biologik ona” deb qayta nomlashimizga sabab bo‘lmoqda. Natijada yana bir retronimik qator paydo bo‘ladi:

biologik ona – ona – surrogat ona

Ushbu ifodadan foydalanish esa o‘zbek jamiyatida hozircha keng tarqalgani yo‘q. Manbalarga e’tibor bersak, bu tushunchalar asosan dunyo yangiliklari haqidagi xabarlardagina uchraydi. O‘zbek tilida bu tushunchaga nisbatan mos keladigan atamalar sifatida ushbu birliklarni keltirish mumkin: *tuqqan ona – boqqan ona*. Hatto o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham ushbu so‘z birikmalarini uchratishimiz mumkin: “*Tuqqan ona ona emas, boqqan ona ona hisoblanadi*” (maqol). Bundan ma’lum bo‘ladiki, bir davrdagi yangi tushunchalardan foydalanish turli jamiyatlarda farq qilishi mumkin.

Retronimlarning paydo bo‘lishi neologizmlarga bog‘liq ekan, o‘zbek tilida ushbu jarayon qay tarzda amalga oshirishini misollar yordamida ko‘rib chiqamiz. Masalan, so‘zlashuv nutqida ko‘p ishlatiladigan “suv” so‘zi dastlab farqlanmagan, ya’ni faqat bitta turni ifodalab kelgan. 1740-yili Vilyam Braunrig konlardan olingan karbonat angidrid yordamida sun’iy gazlangan suvni birinchi bo‘lib ishlab chiqargan. 1767-yili Jozef Priestli mahalliy pivo zavodida karbonat angidrid bilan suv quyish usulini topdi. Suvning bunday turi *sodali suv, gazli suv, gazlangan suv, selder suv* kabi nomlar bilan yuritila boshlandi. Bu tushunchalar natijasida ichimlik suvining avvalgi shakli *gazsiz suv, gazlanmagan suv* deb atalib, retronimik munosabat paydo bo‘ldi.

Suv (dastlabki shakl)	gazlangan suv (yangi shakl)
	gazlanmagan suv (dastlabki shaklni ko‘rsatadigan yangi shakl)

Bundan ko‘rinadiki, retronimlik, ya’ni qayta nomlash hodisasi neologizmlardan ham so‘ng vujudga keladigan hodisadir. Yangi tushuncha, neologizmlarning, tilda paydo bo‘lishi retronimlarning ham paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Yanada aniqroq aytsek, yangi tushunchaning paydo bo‘lishi avvalgi eski tushunchaga yangi nom paydo bo‘lishiga ta’sir qilmoqda. Retronimlar hech qachon yakka holda mavjud bo‘lmaydi. U doim biror ma’noviy guruh tarkibiga kiradi va o‘z sheriklari bilan birga retronimik qatorni hosil qiladi.

Har bir retronimik qatordagi qismlar maxsus nomlar bilan yuritiladi:

1. **Protonim** – doimiy mavjud shakl.
2. **Neonim** – yangi paydo bo‘lgan shakl.
3. **Retronim** – yangi nom ta’sirida paydo bo‘lgan eski shakl.


Quyidagi retronimik qatorlarning qismlariga e’tibor bering:

Retronim	Protonim	Neonim
<i>yozgi olimpiada</i>	<i>olimpiada</i>	<i>qishki olimpiada</i>
<i>gazlanmagan suv</i>	<i>suv</i>	<i>gazlangan suv</i>
<i>bosma kitob</i>	<i>kitob</i>	<i>elektron kitob</i>
<i>tabiiy gul</i>	<i>gul</i>	<i>sun'iy gul</i>
<i>uy telefoni</i>	<i>telefon</i>	<i>uyali telefon</i>
<i>ovozsiz film</i>	<i>film</i>	<i>ovozli film</i>
<i>oq-qora televizor</i>	<i>televizor</i>	<i>rangli televizor</i>
<i>birinchi jahon urushi</i>	<i>urush</i>	<i>ikkinchi jahon urushi</i>
<i>jonli ijro</i>	<i>ijro</i>	<i>fonogramma</i>
<i>tabiiy maysa (o't)</i>	<i>maysa (o't)</i>	<i>sun'iy maysa (o't)</i>

Retronimiya bir soʻz bilan yuzaga chiqmaydigan hodisa hisoblanar ekan, uning mavjudligi neonim va protonimlarning borligi bilan belgilanadi. Protonimlarning turli xususiyatlaridan kelib chiqib, bir protonim turli retronimik qator uchun asos boʻlib xizmat qilishi ham mumkin:

Retronim	Protonim	Neonim
<i>oqava suv</i>	<i>suv</i>	<i>ichimlik suvi</i>
<i>gazzis suv</i>	<i>suv</i>	<i>gazli suv</i>
<i>bosma kitob</i>	<i>kitob</i>	<i>elektron kitob</i>
<i>charm muqovali kitob</i>	<i>kitob</i>	<i>yumshoq muqovali kitob</i>

Retronimlar qatorining barcha holatlarida asosiy tushunchaning oʻzgarishi uchun yangilikning mavjudligi zarur. Buni quyidagicha ifodalashimiz mumkin:



Masalan, “gul” tushunchasini olsak, sun’iy gullarni ishlab chiqarish boshlanmasdan avval barcha gullar tabiiy holda mavjud boʻlgan. Ularda sun’iylikning yoʻqligi tabiiy gul deb atash ehtiyojini ham qoldirmagan. Lekin sun’iy gul neonimi oʻz navbatida “tabiiy gul” retronimini yaratdi. Yangi tushunchaning paydo boʻlishi avvalgisini yoʻqotmadi. Endi ikki tushuncha ham birgalikda mavjud va ular bir guruhni hosil qilmoqda.

Neonimlarning paydo boʻlishi retronimiyaning vujudga kelishida asosiy hodisa hisoblanadi. Lingvistik nuqtai nazardan protonim tarkibida avval mavjud boʻlmagan yoki unga tegishli boʻlmagan semaning yuzaga kelishi farqlash zaruratiga sabab boʻladi. Bu zarurat sababli qatorning uchinchi komponenti – retronimlar hosil boʻladi:

- (1) nashr – (2) elektron nashr – (3) bosma nashr
- (1) pech – (2) mikrotolqinli pech – (3) an’anaviy pech

(1) ona – (2) surrogat ona – (3) biologik ona

Neonim va retronimlar bir tushunchaning (protonimning) ikki qutbi hisoblanib, albatta, differensial belgilarga ega bo‘ladi, shuningdek, ular bir giponimik qatorni, ya’ni jins-tur munosabatini ham yuzaga chiqaradi.

Retronimik qatorning markazi hisoblangan protonimlar semantik jihatdan eng to‘liq birlik hisoblanadi, ya’ni u o‘zida ham neonimning, ham retronimning barcha semalarini mujassamlashtiradi. U iyerarxiyaning eng muhim qismi bo‘lib, o‘zida umumiylikni aks ettiradi, uning ahamiyati nutq jarayonida ko‘p qo‘llanishi bilan belgilanadi. Aniqlik talab qilinmaydigan holatlarda protonimning o‘zi bilan cheklaniladi. Protonimlar, retronimlar va neonimlar qarama-qarshiligida birlashtiruvchi nuqta bo‘lib xizmat qiladi.

“Futbol” sport turini protonim sifatida oladigan bo‘lsak, u o‘z ichida ushbu sport o‘yinining barcha turlarini jamlab oladi. Farqlash ehtiyoji mavjud bo‘lmagan matnlarda esa uning o‘zi fikr ifodalash uchun yetarlidir:

<i>erkaklar futboli</i> (retronim, faqat bir tur)	<i>futbol</i> (protonim, ham erkaklar, ham ayollar)	<i>ayollar futboli</i> (neonim, faqat bir tur va retronimga qarshi tur)
--	--	---

Xydopoulos (2009) va Xydopoulos va Lazana (2014) talqinida, retronimiya mexanizmida protonimning gipernimga aylanishi aytib o‘tiladi, ya’ni uning semantikasi umumiy bo‘lib, retronim va boshqa o‘ziga xos ma’nolarni qamrab oladi.

Nutq jarayonida protonimlarning qo‘llanishida qiziq holatga duch kelamiz: ba’zan u neonim bilan birlashib ma’no ifodalasa, ba’zan retronimning vazifasini bajarib keladi. Ya’ni quyidagi holat yuzaga keladi:

Protonim+neonim yoki *protonim+retronim*.

“Maktab” so‘zining retronimik qatoriga nazar tashlaymiz:

Retronim	Protonim	Neonim
<i>eski maktab</i>	<i>maktab</i>	<i>yangi usul maktabi</i>

XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrda maktablar faoliyati islom dini bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u yerda asosan din va shariat ilmidan saboq berilgan. XIX asrning so‘ngiga kelib, jadidchilik harakati natijasida yangi usul maktablari ochila boshlangan. “*Yangi usul maktablari – musulmon maktablarining ta’lim usuli va dasturlarini isloh qilib, bolalarga ona tilida xat-savod o‘rgatgan va yangi g‘oyalarni ilgari surgan o‘quv yurtlaridir*” [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yangi_usul_maktablari]. Bunday maktablarning paydo bo‘lishi avvalgi mavjud maktablarning “eski maktab” deb atalishiga sabab bo‘ldi va yuqoridagi retronimik qator paydo bo‘ldi. Keyinchalik *maktab* so‘zining ma’nosi yangi usul maktablarining ma’nosi bilan birlashib, ularning retronimi hisoblangan “eski maktab” birikmasiga zid tushuncha sifatida ishlatila boshlandi. Bu holatda protonim neonimning vazifasini bajarishni ham o‘z zimmasiga oldi:

Retronim	Protonim+Neonim
<i>eski maktab</i>	<i>maktab (yangi usul maktabi)</i>

2020-yil butun dunyoda, jumladan, yurtimizda ham e'lon qilingan koronavirus pandemiyasi va karantin tilimizning leksik qatlamiga ham ta'sir o'tkazdi. Ya'ni ushbu jarayon bir guruh yangi tushunchalar va ular bilan birga yangi so'zlarning iste'molga kirishiga, avvaldan mavjudlarining esa keng tarqalib ketishiga sabab bo'ldi. Tashqariga chiqish mumkin bo'lmay, barcha uyda qolgan bir paytda an'anaviy xizmatlarning ko'pchiligi yangi, ya'ni "onlayn xizmat"larni taqdim eta boshladilar. Buning natijasida "oflayn xizmat" tushunchali retronimlar ishlatila boshlandi. Endi siz uyda o'tirgan holda "onlayn dars" o'tishingiz, "onlayn do'kon"lardan o'zingizga kerakli narsalarni xarid qilishingiz, "onlayn konferensiya"larda ishtirok etib, o'z ilmiy salohiyatingizni namoyon etishingiz mumkin. Shu paytgacha insonlar oddiy majlis va yig'ilishlarda qatnashgan bo'lsalar, endi bunday uchrashuvlar ham "Zoom" platformasidagi "onlayn majlis"larga ko'chirildi. Pandemiya boshlanganda ta'lim tizimida zudlik bilan yaratilgan "onlayn maktab" farzandlarimizning bilim olishda to'xtamay davom etishlariga imkoniyat yaratib berdi.

"Onlayn" so'ziga "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati"da shunday izoh berilgan:

onlayn

ing. online

rus. онлайн.

1. Ot. Sizning kompyuteringiz xost-tizim bilan ulangan rejim hamda kompyuteringiz FTP-server, WWW-server va boshqa umumiy foydalanish mumkin bo'lgan tizim bilan ulanganda bevosita xizmatni taqdim qilish. O'zgacha qilib aytganda, foydalanuvchi bilan bevosita o'zaro aloqada ishlash rejimi (foydalanuvchi talabnomalarining paket ishlash tizimlaridan farqi).

2. Sifat. Elektron, tarmoqli nashrlarga, ma'lumotlar bazalariga nisbatan. Masalan, onlayn jurnal; onlayn hujjatlar; onlayn yordam va h.k." [Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati, 2010; 179].

Lug'atda "onlayn" so'zi texnologik atama sifatida izohlanib, u bilan bog'liq 11 ta tushunchaning ta'rifi keltirilgan. Bu tushunchalarning har biri qarshisida "oflayn" (yoki "an'anaviy") tarzdagi retronimlar paydo bo'ladi: *oflayn xizmat – onlayn xizmat, an'anaviy do'kon – onlayn do'kon, oflayn ovoz berish – onlayn ovoz berish, an'anaviy dars – onlayn dars, an'anaviy o'yinlar – onlayn o'yinlar* kabi.

Bungacha "onlayn maktab" tushunchasi o'zbek tilida mavjud emasdi. Maktab so'zining quyidagi retronimik qatori hosil bo'ldi:

Retronim	Protonim	Neonim
<i>oflayn maktab</i>	<i>maktab</i>	<i>onlayn maktab</i>

Ushbu misoldagi protonim endi retronimning ham vazifasini bajarib kela oladi. "Maktab" so'zini eshitganimizda uning "har qanday maktab" ma'nosi bilan bir qatorda aynan "jonli, yuzma-yuz tarzda ta'lim beradigan bilim dargohi" tushunchasi namoyon bo'ladi. "Onlayn maktab" neonimining ko'p vaqt mobaynida amalda bo'lmagani ham bunga o'z ta'sirini o'tkazgan. "Ta'kil uzaytirilgan davrda davlat maktablari o'qituvchilariga maoshi to'liq to'lab berilishi ma'lum qilindi" [<https://qalampir.uz/uz/>

news/maktab-uk-uvchilarining-ta-tili-1-martgacha-uzaytirildimi-khtv-izo%D2%B3-berdi-53399]. Internet sahifalaridan olingan ushbu gapdagi “maktab” so‘zi orqali aynan “oflayn maktab” nazarda tutilganini anglash mumkin. “*Xalq ta’limi vazirligi otonalardan farzandlarining uydagi xavfsizligi va sog‘ligini ta’minlagan holda “Onlayn maktab” loyihasi doirasida efirga uzatiladigan darslarni kuzatib borishlarida amaliy yordam berishlarini so‘raydi*” [<https://kun.uz/uz/news/2022/01/20/ozbekistonda-maktablar-onlayn-formatga-otishi-rasman-tasdiqlandi>]. Ushbu parchada ishlatilgan “onlayn maktab” neonimining ma’nosini faqat protonimning o‘zini berish bilan ifodalab bo‘lmaydi.

Protonim+neonim hodisasini misollar yordamida ko‘rib chiqsak:

Retronim	Protonim+Neonim
qo‘lyozma kitob	kitob (shuningdek, aynan bosma kitob)
uy telefoni	telefon (aynan uyali telefon)
ovozsiz kinofilm	kinofilm (aynan ovozli kinofilm)
oq-qora televizor	televizor (aynan rangli televizor)
oq-qora rasm	rasm (aynan rangli rasm)
shahar telefon raqami	telefon raqami (aynan qo‘l telefoni raqami)
oq to‘y	to‘y (aynan qizil to‘y)

“Davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqarilayotgan badiiy filmlar bilan respublika aholisini yanada yaqinroq tanishtirish, keying yillarda ishlab chiqarilgan filmlar targ‘ibotini amalga oshirish maqsadida “O‘zbekkino” Milliy agentligi tomonidan milliy kinofilmlar festivali o‘tkaziladi” [[https://xs.uz/uz/post/olmaliqdamillij- ...](https://xs.uz/uz/post/olmaliqdamillij-...)]. Ushbu parchadagi “film” va “kinofilm” so‘zlarini o‘qiganimizda ularning aynan ovozli filmlar ekanligini ham tushunamiz.

“Metropolis” ovozsiz filmi 1927-yilda nemis ekspressionizmi uslubida rejissor Frits Lang tomonidan suratga olingan” [<https://www.gazeta.uz/uz/2012/01/13/namoyish/>]. Bu misolda “ovozsiz film” retronimisiz fikr aniqligiga erishib bo‘lmaydi. Navbatdagi misollarimizda esa protonimlar retronimlar bilan birlik hosil qilib, uning ma’nosini anglatishga xizmat qiladi:

Retronim+Protonim	Neonim
do‘kon (oddiy do‘kon)	ko‘chma do‘kon
sovun (oddiy sovun)	suyuq sovun
avtomobil (oddiy avtomobil)	elektromobil
sigaret (tabiiy sigaret)	elektron sigaret
dars (an’anaviy dars)	onlayn dars
kola (klassik kola)	shakarsiz kola
ona (biologik ona)	surrogat ona
o‘t (tabiiy o‘t)	sun‘iy o‘t
soch (tabiiy soch)	sun‘iy soch

“Prezident dushanba kungi yig‘ilishida UzAutoMotors avtomobillari uchun oldindan to‘lov 87% dan 50% gacha kamaytirilishini ma’lum qildi. “O‘zavtosanoat”ga 1-mayga qadar avtomobil xarididagi navbatlarni to‘liq bartaraf etish topshirig‘i berilgan” [[https://www.autostrada.uz/uzauto-motors-gm-uzbekistan-avtomobillari-uchun-oldindan- ...](https://www.autostrada.uz/uzauto-motors-gm-uzbekistan-avtomobillari-uchun-oldindan-...)].

“Ekspertlarning fikricha, elektromobillar ishqibozlari uchun maqbul bo‘lgan holatda, ya’ni uzoq masofaga yura oladigan, ammo birmuncha arzon elektromobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan taqdirda, bu kabi transport vositalarining Amerika bozoridagi ulushi kelasi yigirma yilda 35 foizga ortadi. Shunga ko‘ra, benzin iste‘moli 5 martaga kamayishi mumkin” [[https://kun.uz/uz/news/2016/06/22/aksda-elektromobillar-sababli-benzinga-bulgan-talab-20- ...](https://kun.uz/uz/news/2016/06/22/aksda-elektromobillar-sababli-benzinga-bulgan-talab-20-...)].

Yuqorida keltirilgan misollarning birinchisida “avtomobil” so‘zi protonim sifatida har qanday avtomobilni emas, aynan elektron bo‘lmagan, oddiy avtomobilni ko‘rsatmoqda. Keyingi misolda esa fikr *elektromobil* neonimi bilan aniq ifodalangan.

Ayrim holatlarda protonim retronim yoki neonim bilan birlashmagan holda faqat umumiy ma’nodagina ishlatiladi. Bunday hollarda protonimning yakka o‘zidan foydalanish noaniqlikka sabab bo‘ladi:

Retronim	Protonim	Neonim
<i>Katta Jorj Bush</i>	<i>Jorj Bush</i>	<i>Kichik Jorj Bush</i>
<i>Birinchi jahon urushi</i>	<i>urush</i>	<i>Ikkinchi jahon urushi</i>
<i>mexanik uzatma</i>	<i>avtomobil uzatmasi</i>	<i>avtomat uzatma</i>
<i>gazlanmagan suv</i>	<i>suv</i>	<i>gazlangan suv</i>
<i>“Muzlik davri I”</i>	<i>“Muzlik davri”</i>	<i>“Muzlik davri II”</i>
<i>Apple I</i>	<i>Apple</i>	<i>Apple II</i>

“1941-1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushida ko‘p millatli O‘zbekiston xalqi jang maydonlarida va front ortida ulkan jasorat va matonat ko‘rsatib, fashizm ustidan qozonilgan g‘alabani ta’minlashga munosib hissa qo‘shdi” [<https://yuz.uz/uz/news/arxiv-hujjatlarida-ikkinchi-jahon-urushi-davrida-evakuatsiya-qilingan-bolalar-taqdiri>].

“Birinchi jahon urushiga olib kelgan narsa imperializmning rivojlanishi, birinchi navbatda, imperialistlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi, Yevropa davlatlarining ikki harbiy siyosiy blokka – Atlanta va “Uchlar ittifoqi” o‘rtasida dunyoni, yanayam aniqrog‘i, bo‘lingan dunyoni qaytadan bo‘lib olish uchun kurash bo‘ldi” [<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/birinchi-jahon-urushining-sabablari-va-oqibatlari>].

“Urushning yaxshisi bo‘lmaydi. Ammo eng dahshatli urush – fuqarolar urushi. Negaki u avloddan avlodga “meros” o‘tib, abadiy davom etadi” [[https://library.samdu.uz/download/ ...](https://library.samdu.uz/download/...)].

Yuqoridagi kabi jummalarda retronimik qator uzvlarini o‘z o‘rnida qo‘llamaslik ma’noviy noaniqlikka sabab bo‘ladi.

Retronimiya hodisasini tahlil qilish natijasida leksik o‘zgarishlarni turli tomondan tekshirish, protonimlarning giperonim darajasiga ko‘tarilishini yoki protonimlarning neonim yoki retronim tomonga siljishini kuzatishimiz mumkin.

Retronimlar haqida so‘z borar ekan, uning neologizmlar bilan munosabatiga ham to‘xtalish zarur. Retronimiyaning vujudga kelishida neologizmlar muhim rol o‘ynaydi, ya’ni eski nomga murojaat qilishimizning asosiy sababi yangilikning paydo bo‘lishidir. Retronimning mavjudligi qarshisida neonimning borligi bilan isbotlanadi.

Lekin neonimlarning barchasi ham neologizm bo‘lmasligi mumkin:

Retronim	Neonim (Neologizm)
<i>oddiy avtomobil</i> <i>an’anaviy dars</i> <i>inson</i>	<i>elektromobil</i> <i>onlayn dars</i> <i>sun’iy intellekt</i>

Ushbu misollardagi neonimlar o‘zida neologizmlik xususiyatini saqlab turibdi. Endi quyidagi misollarga e’tiborimizni qaratamiz:

Retronim	Neonim (Neologizm emas)
<i>yozgi olimpiada</i> <i>oq to‘y</i> <i>tabiiy teri</i>	<i>qishki olimpiada</i> <i>qizil to‘y</i> <i>sun’iy teri</i>

Bu misollarda keltirilgan neonimlar hozirgi kun uchun yangilik bo‘yog‘ini saqlab qolmagan. Lekin paydo bo‘lish va retronimning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan davrida ular neologizm hisoblangan.

Retronimlarning vujudga kelishi uchun neologizmlar ahamiyatli hisoblanar ekan, yangi so‘zlarning paydo bo‘lish sabablariga to‘xtalsak. Bu hodisa Giraldo Ortiz va Jan Jayro tomonidan shunday izohlanadi: “Neologiya evolyutsiyasining paydo bo‘lishi turli sabablar bilan izohlanadi. Masalan:

– fan va texnikaning jadal rivojlanishi bir tomondan, ko‘plab ehtiyojlarning paydo bo‘lishiga olib keldi, boshqa tomondan, axborot vositalari va axborot uzatish tizimlarining paydo bo‘lishi bilimning tez tarqalishiga sabab bo‘ldi;

– zamonaviy jamiyat evolyutsiyasi ikkita sababdan kelib chiqqan lingvistik keskinlashuvga olib keldi: ingliz tilidan foydalanishning kuchayishi (ayniqsa, muayyan rasmiy maqsadlarda) va shu sababli monolingualizmga moyillik. Natijada dominant bo‘lmagan tillar o‘z tizimini mustahkam kodlash, kodlarini doimiy ravishda yangilash va diversifikatsiya qilish orqali ularning uzluksizligini ta’minlaydi;

– madaniy, siyosiy yoki iqtisodiy xarakterdagi xalqaro forumlarning doimiy ravishda o‘tkazilishi yangiliklarni tezroq tarqatish va ko‘p tillilikning rivojlanishiga olib keldi;

– hukumatlarning til masalalariga aralashuvi, bu nafaqat yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan tillar uchun, balki yaqin vaqtlargacha dominant hisoblangan tillar (masalan, fransuz tili) uchun ham til siyosati rejalari bo‘yicha takliflarni keltirib chiqardi. Shu ma’noda muassasalar yangi lingvistik ehtiyojlarni hal qilish uchun mas’ul bo‘lgan muassasalarni yaratdilar” [Giraldo Ortíz, 2016].


Sahara Cholak fikriga ko‘ra esa: “Aloqa va axborot hozirgi kunda raqamli platformalarda amalga oshirilmoqda. Biz yashayotgan dunyo avvalgilaridan tubdan farq qiladi. Endi insonlar raqamli hududda yashamoqda va bu yerda fikrlar soniyalarda turli joyga yetib boradi. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlar va internet; kino va televideniye; radio va musiqa kabi turli ommaviy axborot vositalari insonlarni o‘ziga va shu orqali yangi voqelikka jalb etishda davom etmoqda. Bu real dunyoda yashashga intilayotgan odamlarning o‘z tilini saqlashi ko‘p hollarda vaqt ta’siriga bo‘ysunmoqda. Tilni asrab boshqarib borish mumkin bo‘lmayotgan bu real hayotda tilni ta’qib qilish borgan sari

murakkablashib bormoqda” [Cholak, 2021].

Soʻzlar neologizm deb atalishi uchun ularda qanday xususiyat boʻlishi kerak? Bu haqda tadqiqotchilar qanday fikrda? Algeo (1993) fikricha, yangi soʻz yoki neologizm umumiy lugʻatlarda mavjud boʻlmagan shakldir. Iso Sari ham retronimlar haqida yozar ekan, avval neologizmlar tahliliga eʼtibor qaratadi: “Neologizm – yangi tushunchaga javob berish yoki mavjud tushunchani yaxshiroq aniqlash uchun yaratilgan atama. Ular morfologik, semantik yoki morfo-semantik oʻlchovlarga ega boʻlishi mumkin” [Sari, 2013.] Sahara Cholak fikricha, tildagi yangiliklarning bosh sababi innovatsiyalar hisoblanadi. Yaʼni “innovatsiyalarni ishlab chiqaruvchi jamiyatlar oʻz tillarida bu yangilikning ifodasini ham ishlab chiqib, uni ommaga taqdim etishi mumkin. Boshqa tomondan esa yangiliklarni boshqalardan oladigan jamiyatlar ularni oʻrgangan jamiyat tilida taniydi va tushuntirishga harakat qiladi. Yangilikning tildagi birinchi ekvivalenti “yangi element”, yaʼni “neologizm”dir. Yangiliklar har doim ham yangi soʻzga muhtoj emas, baʼzan tilda mavjud soʻzga berilgan yangi maʼnolar orqali ham bu ehtiyoj qondiriladi. Bu holat ham mazmunli hosila boʻlib, yangi element hisoblanadi” [Cholak, 2021].

Neologizmlarning yuzaga kelishidagi eng muhim jarayonlardan biri bu fan va texnikaning taraqqiyotidir. Taraqqiyotning jadal rivoji kuzatilayotgan hozirgi kunimizda yangi elementlarning paydo boʻlishi ham tezlashib ketdi. Tilimizda neologizmlarning koʻpayishi, oʻz navbatida, retronimlar sonining ortishiga ham sabab boʻlmoqda.

XX asrda murakkab operatsiyalarni avtomatik tez bajarishga qodir va maʼlumotlarni raqamli saqlash xususiyatiga ega boʻlgan qurilmaning yaratilishi va isteʼmolga kiritilishi tilda “kompyuter” neologizmining paydo boʻlishiga ham sabab boʻldi. Kompyuterlashtirish jarayonining jadallashuvi esa uning turlarining koʻpayishiga olib keldi va natijada ularni farqlash ehtiyoji yuzaga keldi. Bu jarayonning oxiri esa retronimiya hisoblanadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:



Misollardan ma'lum bo'ladiki, neologizmning oqibati sifatida tilda retronimlar paydo bo'ladi. Shuningdek, neologizmlar boshqa yangi elementlar sababli protonim yoki retronimlik xususiyatiga ega bo'lish mumkin. Iso Sari fikricha, retronimlar neologizmlarning bir turi hisoblanadi [Sari, 2013].

Neologiyada paydo bo'layotgan bir turdagi yangiliklar shu turga zid hisoblangan retronimlari bilan namoyon bo'lmoqda. Axborot texnologiyalarining rivoji natijasida biz raqamli dunyoda yashamoqdamiz. Bu dunyodagi barcha mahsulotlar avvalgisi bilan zidlik hosil qilmoqda, natijada "raqamli" neologizmlar qarshisida "oddiy" so'zi bilan retronimlar paydo bo'lmoqda:

oddiy texnologiya – raqamli texnologiya
oddiy videokamera – raqamli videokamera
oddiy fotoapparat – raqamli fotoapparat
oddiy imzo – raqamli imzo
oddiy kartografiya – raqamli kartografiya
oddiy iqtisodiyot – raqamli iqtisodiyot.

"Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi" [Jumanova, 2020].

"Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati"da "raqamli" so'ziga shunday ta'rif berilgan:

raqamli

ing. digital

rus. цифровой.

Raqamlardan tashkil topgan ma'lumotlarga hamda bu ma'lumotlardan foydalanadigan jarayonlar va funksional qurilmalarga tegishli tushuncha [Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati, 2010; 199]. Xuddi shu lug'atda "raqamli" neologizmi bilan bog'liq 27 ta birlikning izohi berilgan. Natijada yana shuncha retronimning mavjudligi anglashiladi.

Neologizmlar va retronimlar munosabatida "smart" ("aqlli") so'zi bilan bog'liq yangi so'zlar ham ko'p uchraydi: smartfon, smart televizor, smart soat kabilar. Ularga qarshi hodisa sifatida esa o'z navbatida "oddiy" so'zi bilan retronimlar hosil bo'ladi: odiy televizor, odiy soat, odiy telefon kabi.

Ayrim retronimlar tilda paydo bo'lishi bilanoq ular anglatgan tushuncha eskirishi mumkin. Bunday paytda retronim va neologizmlar ziddiyati yuzaga chiqadi. Ya'ni neologizmning paydo bo'lishi natijasida uning zidi hisoblangan retronim va u anglatgan tushuncha tildan va nutqdan chiqib ketadi. Bunga misol qilib "ovozsiz film" retronimini keltirishimiz mumkin. 1927-yili "Jaz qo'shiqchisi" nomli birinchi ovozli film yaratilgunga qadar ishlangan barcha filmlarda ovoz bo'lmagan. Aktyorlar faqat harakatlar yordamida fikrlarini ifoda etar edilar. (Mashhur Charli Chaplinni eslang) 1927-yil ilk ovozli film ekran yuzini ko'rgandan so'ng avvalgi barcha filmlar "ovozsiz film" retronimi bilan nomlana boshlandi va shundan so'ng bunday filmlar ishlab chiqarish deyarli to'xtatildi. Ovozli filmlarning va ushbu atamaning paydo

bo‘lishi “ovozsiz film” retronimini paydo qilgan bo‘lsa, bunday filmlarning o‘zining yo‘q bo‘lishiga ham sabab bo‘ldi. “Ovozli film” atamasi esa keyinchalik farqlanish ehtiyoji qolmagani sababli “film” so‘zining yakka o‘zi bilan ifodalanmoqda. Demak, “film” so‘zining nom va ma’no taraqqiyoti quyidagicha:

Film	film (dastlab faqat ovozsiz bo‘lgan) ovozsiz film (retronim, istorizm) ovozli film (retronimga sabab bo‘lgan yangi shakl, neonim) film (hozir faqat ovozli filmlar)
------	--

Ayrim hollarda retronimlarning paydo bo‘lishi boshqa so‘zlarning eskirishiga sabab bo‘lishi mumkin. 1939-1945-yillar oralig‘ida bo‘lib o‘tgan Ikkinchi jahon urushi avvalgi, ya’ni 1914-1917-yillardagi urush Birinchi jahon urushi deb atalishiga sabab bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushi bo‘lgunga qadar “Buyuk urush” deb yuritiladigan urushga retronim sifatida berilgan nom avvalgi nomning eskirishiga ta’sir qildi. Hozirgi kunda “Buyuk urush” tushunchasi eskirib, uning o‘rnida “Birinchi jahon urushi” atamasi ishlatilmoqda. Bundan ko‘rinadiki, retronimlar nafaqat, eski tushunchalarni nomlab keladi, shuningdek, avvalgi tushunchalarning eskirishiga ham ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Ba’zan esa salbiy tushunchalar ta’sirida ularga qarshi qo‘yiladigan ijobiy tushunchalar ham paydo bo‘lmoqda. Masalan, “fonogramma”ning paydo bo‘lishi unga zid ma’noli “jonli ijro” retronimini yaratdi. Fonogramma bilan qo‘shiq ijro etish kashf etilgungacha barcha ijrolar jonli bo‘lgan, shuning uchun unga alohida nom berish zarurati ham bo‘lmagan. XX asr o‘rtalariga kelib radio, televideniylarda fonogramma usulida yozilgan ijrolardan foydalanish boshlangan. Keyinchalik ommaviy tadbirlarda keng qo‘llanilgan va bora-bora odatiy konsertlar, kichik davralarda ham asosiy o‘rinni egalladi. Hozir esa jonli ijroda konsert qo‘yish kamyob, barcha ham bajara olmaydigan hodisaga aylanib bormoqda. Bu esa jonli ijro tushunchasining ijobiy mohiyat kasb etib, fonogrammaning salbiy ma’no anglatishiga sabab bo‘lmoqda.

“Biz nima uchun bugun jonli ijro haqida ko‘p gapiramiz? Qalblarni larzaga soluvchi bunday ijrolarni sog‘inamiz. Chunki ohanglari bilan dillarga huzur bag‘ishlovchi bunday ijrolar, afsuski, kamayib ketdi. Odamlar jonli ijro nima ekanligini unutib ham qo‘ydi. Nega?

– Oldinlari to‘ylarga borib, hofizlarning jonli ijrodagi qo‘shiqlarini eshitib maza qilardik, - deydi buvim. – Qishloq aholisining madaniy hordiq chiqaradigan joyi to‘ylar edi. Bugun to‘yga borsang, ashuladan emas, shovqindan boshing og‘riydi.

Amerikalik xonanda Ronni Jeyms Dio: “Fonogrammada berilgan konsertga kserokopiya qilingan pul to‘lash kerak”, degan edi. Haqiqatdan ham, fonogramma orqali qo‘shiq eshitasiz, ammo misralarning mag‘zini, san’atkorning dardini his qilmaysiz” [[https://zarnews.uz/uz/post/ ...](https://zarnews.uz/uz/post/)].

Ushbu matn orqali ham fonogramma – jonli ijro retronimik munosabatidagi ziddiyatni va bu ziddiyatga insonlar qanday munosabatda bo‘lishini bilib olishimiz mumkin. Demak, retronimlar faqatgina bir guruhga mansub so‘zlarni emas, antonim so‘zlarni ham hosil qiladi.

Tilimizda mavjud aksariyat retronimlar mavjud buyumlarning ilg'or modifikatsiyasini keltirib chiqaradigan texnologik va ilmiy yutuqlar natijasidir. Ya'ni elektromobillar gaz yoki yonilg'iga yuradigan avtomobillarni, reaktiv samolyotlar oddiy samolyotlarni, elektron yozuv mashinalari (kompyuterlar) oddiy yozuv mashinalarini, suratga olish moslamasiga ega bo'lgan telefonlar fotoapparatlarni, shuningdek, sensorli telefonlar tugmachali telefonlarni, simsiz quloqchinlar (yoki "sichqoncha"lar) simli quloqchinlarni (yoki "sichqoncha"larni) retronim sifatida vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu kabi misollarni yana yuzlab keltirishimiz mumkin. Demak, ilmiy uslubning aynan axborot-kommunikatsiya sohasida retronimiya hodisasiga ko'p duch kelishimiz mumkin. Ular ishtirok etgan misollarga bir nazar solsak:

"Dunyo bo'ylab umumiy yoqilg'ilar orasida, shubhasiz, benzin yetakchilik qiladi. Undan keying o'rinda turuvchi dizel yoqilg'isida ham yuruvchilar ko'p. Ammo yildan yilga gaz orqali va elktromobillar yordamida yuruvchi mashinalar soni ko'payib bormoqda, bu esa neft mahsulotlarida harakatlanuvchilar ulushini kamaytirmoqda" [<https://kun.uz/uz/news/2019/01/08> ...].

"Kompyuterlar paydo bo'lgandan so'ng yozuv mashinkasiga ehtiyoj biroz susaydi. Yozuv mashinkasini yaratishga urinish XVI asrda boshlangan, birinchi patentni ingliz ixtirochisi G. Mill 1714-yilda olgan. XIX asr oxirlariga kelib ommaviy tarzda ishlab chiqarila boshlangan" [<https://qomus.info/oz/encyclopedia/y/yozuv-mashinkasi/>].

"Rossiyada tugmachali telefonlar ommalashishi kutilmoqda. Bunday arzon-garov va o'rtamiyona apparatlarga talab keskin oshadiganga o'xshayapti" [<https://ict.xabar.uz/uz/post/> ...].

"Bugungi kunda qaysi bir yoshlarga qaramaylik, qulog'ida go'yoki lag'mon misol osilib turgan quloqchinlarga ko'zimiz tushadi. Kimdir simli quloqchindan foydalansa, yana kimlardir zamon bilan hamnafas bo'lgan holda Airpodslarga (simsiz quloqchin) murojaat qilishmoqda" [<https://ict.xabar.uz/uz/mualliflar/ezoza/airpods> ...].

Biz yuqorida misollar keltirgan retronimlar o'tgan asr va bugungi kunning tez sur'atda o'zgarayotganidan dalolat beradi. Shunchalik tez rivojlanib boryapmizki, hatto o'zgarishlarni ko'z ilg'amay qolmoqda. Bu o'zgarishlar ta'sirini esa lug'at boyligimizning rivojida retronimlar misolida kuzatib bormoqdamiz. Tilimizdagi ushbu o'zgarishlarning aksariyati hayotimizning yaxshilanib borayotganligini ta'kidlaydi. Ya'ni bizga zarur mahsulotlar oddiydan, soddadan murakkabga, yanada takomillashgan tomonga qarab boryapti. Solishtiring:

yarimavtomat kir yuvish mashinasi – avtomat kir yuvish mashinasi.
oq-qora televizor – rangli televizor – "smart" televizor.
tugmachali telefon – sensorli telefon.

Yuqoridagi kabi rivojlanishlar hayotimizni osonlashtirmoqda, muloqotimizning sifatli bo'lishiga yordam bermoqda. Shu tarzda lug'at boyligimiz retronimlar bilan

boyib borar ekan, texnologik taraqqiyotning yana qanday yutuqlarga erishishini tasavvur qilish ham qiyinlashmoqda.

XULOSA

Demak, atrofimizdagi va tilimizdagi yangiliklar eski tushunchalarning qaytadan nomlash zaruratini yuzaga keltirib, neologizm va retronimlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi. Neologiya va retronimiya bir-birini talab qilib, to'ldirib, yangilab boradigan bir butun hodisa sifatida namoyan bo'ladi.

O'zbek tilidagi retronimlar haqida fikr yuritilgan ushbu maqolada ularning neologizmlar bilan munosabatini, retronimlarning paydo bo'lishida neologizmlarning ahamiyatini ochib berishga harakat qildik. Neologizmlar jamiyat taraqqiyoti natijasida vujudga kelar ekan, ular qarshisida paydo bo'lgan birliklarni qayta nomlash zarurati retronimiyaga sabab bo'lishini ko'rib chiqdik. Neonim va neologizm tushunchasi qanday holatda birlashib, qanday holatda farqlanishini misollar yordamida ko'rsatib berdik. Tilshunoslikda neologizm hodisasi atroficha o'rganib chiqilgan, tahlil qilingan. Nisbatan yangi hodisa hisoblangan retronimlarni tadqiq qilish, ularning struktural, semantik xususiyatlarini o'rganish, lug'atlarda berilish tamoyillarini tahlil qilish tilshunoslikda navbatdagi masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad, K. (2000, August 8-12). Neologisms, nonces and word formation. In U.Heid, S.Evert, E.Lehmann & C.Rohrer (Eds.), *The 9th EURALEX International Congress* (Vol. 2) (pp. 711-730). Munich: Universitat Stuttgart.
2. Algeo, J. (1993). *Fifty years among the new words: A dictionary of neologisms 1941-1991*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati*. (2010). Toshkent: BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi.
4. Bağmanci, E., & Önel, A. (2022). Eski Sözcüğe Yeni İsim: Arap Dilinde Retronimler. *Istanbul Journal of Arabic Studies*, 5(2), 137-158.
5. Dury, P., Hoyos, J., Maniez, F. (2015). La néologie en langue de spécialité: Détection, implantation et circulation des nouveaux termes. *Neologica*, 9, 269-275. <https://dx.doi.org/10.15122/isbn.978-2-8124-4838-6.p.0269>.
6. Giraldo Ortiz, J.J. (2016). La neología: indicador de la vitalidad de una lengua y su cultura. *Revista Interamericana de Bibliotecología*, 39(1), 36-46. <https://doi.org/10.17533/udea.rib.v39n1a06>.
7. Jumanova, S. (2020, 17-sentabr). Raqamli iqtisodiyot: taraqqiyot sari qisqa yo'l. "Yangi O'zbekiston" gazetasining rasmiy veb sayti. <https://yuz.uz/uz/news/raqamli-iqtisodiyot-taraqqiyot-sari-qisqa-yol>.
8. Kholmonova, S. (2021). Retronyms used in the Uzbek Press and issues of their classification. *Middle European Scientific Bulletin*, 16, 163-165. <https://cejssr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/732>.
9. Lazana, E. (2012). The phenomenon of retronymy in Greek: A lexicological approach. *MA thes*. Patras: University of Patras.
10. Mäkelä, E. (2022). Retronyms and neonyms: A corpus-based study. *MA thes*. Finland: Tampere University.
11. Palmerini, M., & Lozano, Z.M. (2019). Aproximación al estudio de la retronimia en español: principios teóricos y análisis computacional de datos masivos. *Orillas*, 8, 695-723.
12. Safire, W. (2007, November 18). Retronymy. *The New York Times Magazine*. <https://www.nytimes.com/2007/11/18/magazine/18wwln-safire-t.html>.

13. Sari, İ. (2013). Dilde Yeniden Adlandırma İhtiyacı: Retronimler. *Türkbilig*, 25, 19-26. <https://dergipark.org.tr/tr/pub/turkbilig/issue/52816/697608>.
14. *The American heritage dictionary of the English language*. (1992). Boston: Houghton Mifflin Harcourt.
15. Xydopoulos, G. (2008). *Lexicology: Introduction to the analysis of the word and the lexicon*, Athens: Patakis Publishers.
16. Xydopoulos, G. (2009, April 3-5). *Retronymy or when technology meets language*. Greece: Thessaloniki.
17. Xydopoulos, G.J., & Lazana, I. (2014): A view into retronymy as a source of neology. In P.Dury, J.Carlos de H., J.Makri-Morel (Eds.), *Neology in Specialized Languages* (pp. 75-98). Lyon: Centre de Recherche en Terminologie et Traduction Université Lumière Lyon.
18. Yuldashev, M. (2020). Retronyms in the Uzbek language. *International Journal on Integrated Education*, 3(8), 155-158. <https://doi.org/10.31149/ijie.v3i8.555>.
19. Çolak, S. (2021). 21. Yüzyıl Türkçesinde Yeni Ögeler ve Yeni Sözcükler. *Yüksek Lisans Tezi*. Ankara: Hacettepe Üniversitesi.
20. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/birinchi-jahon-urushining-sabablari-va-oqibatleri>.
21. <https://ict.xabar.uz/uz/mualliflar/ezoza/airpods-yoki-simli-quloqchinlar-qay-birini-tanlaysiz-video>.
22. <https://ict.xabar.uz/uz/post/rossiyada-tugmachali-telefonlar-ommalashmoqda>.
23. <https://kun.uz/uz/news/2016/06/22/aksda-elektromobillar-sababli-benzinga-bulgan-talab-20-foizga-kamajisi-mumkin>.
24. <https://kun.uz/uz/news/2019/01/08/bizda-metan-boshqalardachi-gazda-harakatlanuvchi-avtomobillar-yana-qaysi-davlatlarda-ommalashgan?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F01%2F08%2Fbizda-metan-boshqalardachi-gazda-harakatlanuvchi-avtomobillar-yana-qaysi-davlatlarda-ommalashgan>.
25. <https://kun.uz/uz/news/2022/01/20/ozbekistonda-maktablar-onlayn-formatga-otishi-rasman-tasdiqlandi>.
26. <https://library.samdu.uz/download/21801>.
27. <https://qalampir.uz/uz/news/maktab-uk-uvchilarining-ta-tili-1-martgacha-uzaytirildimi-khtv-izo%D2%B3-berdi-53399>.
28. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/y/yo-zuv-mashinkasi/>.
29. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yangi_usul_maktablari.
30. <https://www.autostrada.uz/uzauto-motors-gm-uzbekistan-avtomobillari-uchun-oldindan-to-lov-85-foizdan-50-foizgacha-kamaytiriladi/amp/>.
31. <https://www.gazeta.uz/uz/2012/01/13/namoyish/>.
32. <https://xs.uz/uz/post/olmaliqda-millij-kinofilmlar-festivali-otkaziladi>.
33. <https://yuz.uz/uz/news/arxiv-hujjatlarida-ikkinchi-jahon-urushi-davrida-evakuatsiya-qilingan-bolalar-taqdiri>.
34. <https://zarnews.uz/uz/post/samarqandda-jonli-ijro-aytadigan-sanatkor-bormi>.

REFERENCES

1. Ahmad, K. (2000, August 8-12). Neologisms, nonces and word formation. In U.Heid, S.Evert, E.Lehmann & C.Rohrer (Eds.), *The 9th EURALEX International Congress* (Vol. 2) (pp. 711-730). Munich: Universitat Stuttgart.
2. Algeo, J. (1993). *Fifty years among the new words: A dictionary of neologisms 1941–1991*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Bagmanchi, E. & Onel, A. (2022). New names for old things: Retronyms in Arabic language. *Istanbul Journal of Arabic Studies*, 5(2), 137-158.
4. Cholak, S. (2021). New elements and new words in 21st century Turkish. *MA thes*. Ankara: Hacettepe University.
5. Dury, P., Hoyos, J., Maniez, F. (2015). Neology in specialized language: Detection,

- establishment and circulation of new terms. *Neologica*, 9, 269-275. <https://dx.doi.org/10.15122/isbn.978-2-8124-4838-6.p.0269>.
6. *Explanatory dictionary of information and communication technologies*. (2010). Tashkent: UN Development Program representative office in Uzbekistan.
 7. Giraldo Ortiz, J.J. (2016). The neology: indicator of the vitality of a language and its culture. *Inter-American Journal of Library Science*, 39(1), 36-46. <https://doi.org/10.17533/udea.rib.v39n1a06>.
 8. Jumanova, S. (2020, September 17). Digital economy: a short path to development. The official website of "New Uzbekistan" Newspaper. <https://yuz.uz/uz/news/digital-economy-taraqqiyot-sari-kisqa-yol>.
 9. Kholmonova, S. (2021). Retronyms used in the Uzbek Press and issues of their classification. *Middle European Scientific Bulletin*, 16, 163-165. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/732>.
 10. Lazana, E. (2012). The phenomenon of retronymy in Greek: A lexicological approach. *MA thes*. Patras: University of Patras.
 11. Mäkelä, E. (2022). Retronyms and neonyms: A corpus-based study. *MA thes*. Finland: Tampere University.
 12. Palmerini, M., & Lozano, Z.M. (2019). Approach to the study of retronymy in Spanish: theoretical principles and computational analysis of massive data. *Shores*, 8, 695-723.
 13. Safire, W. (2007, November 18). Retronymy. *The New York Times Magazine*. <https://www.nytimes.com/2007/11/18/magazine/18wwln-safire-t.html>.
 14. Sari, İ. (2013). Necessity for renaming in language: Retronyms. *Turkbilig*, 25, 19-26. <https://dergipark.org.tr/tr/pub/turkbilig/issue/52816/697608>.
 15. *The American heritage dictionary of the English language*. (1992). Boston: Houghton Mifflin Harcourt.
 16. Xydopoulos, G. (2008). *Lexicology: introduction to the analysis of the word and the lexicon*, Athens: Patakis Publishers.
 17. Xydopoulos, G. (2009, April 3-5). *Retronymy or when technology meets language*. Greece: Thessaloniki.
 18. Xydopoulos, G.J., & Lazana, I. (2014): A view into retronymy as a source of neology. In P.Dury, J.Carlos de H., J.Makri-Morel (Eds.), *Neology in Specialized Languages* (pp. 75-98). Lyon: Center for Research in Terminology and Translation University Lumière Lyon.
 19. Yuldashev, M. (2020). Retronyms in the Uzbek language. *International Journal on Integrated Education*, 3(8), 155-158. <https://doi.org/10.31149/ijie.v3i8.555>.
 20. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/birinchi-jahon-urushining-sabablari-va-oqibatlari>.
 21. <https://ict.xabar.uz/uz/mualliflar/ezoz/airpods-yoki-simli-quloqchinlar-qay-birini-tanlaysiz-video>.
 22. <https://ict.xabar.uz/uz/post/rossiyada-tugmachali-telefonlar-ommalashmoqda>.
 23. <https://kun.uz/uz/news/2016/06/22/aksda-elektromobillar-sababli-benzinga-bulgan-talab-20-foizga-kamajisi-mumkin>.
 24. <https://kun.uz/uz/news/2019/01/08/bizda-metan-boshqalardachi-gazda-harakatlanuvchi-avtomobillar-yana-qaysi-davlatlarda-ommalashgan?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F01%2F08%2Fbizda-metan-boshqalardachi-gazda-harakatlanuvchi-avtomobillar-yana-qaysi-davlatlarda-ommalashgan>.
 25. <https://kun.uz/uz/news/2022/01/20/ozbekistonda-maktablar-onlayn-formatga-otishi-rasman-tasdiqlandi>.
 26. <https://library.samdu.uz/download/21801>.
 27. <https://qalampir.uz/uz/news/maktab-uk-uvchilarining-ta-tili-1-martgacha-uzaytirildimi-khtv-izo%D2%B3-berdi-53399>.
 28. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/y/yozuv-mashinkasi/>.
 29. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yangi_usul_maktablari.

30. <https://www.autostrada.uz/uzauto-motors-gm-uzbekistan-avtomobillari-uchun-oldindan-to-lov-85-foizdan-50-foizgacha-kamaytiriladi/amp/>.
31. <https://www.gazeta.uz/uz/2012/01/13/namoyish/>.
32. <https://xs.uz/uz/post/olmaliqda-millij-kinofilmlar-festivali-otkaziladi>.
33. <https://yuz.uz/uz/news/arxiv-hujjatlarida-ikkinchi-jahon-urushi-davrida-evakuatsiya-qilingan-bolalar-taqdiri>.
34. <https://zarnews.uz/uz/post/samarqandda-jonli-ijro-aytadigan-sanatkor-bormi>.